



## TARIX O'QITISHDA PEDAGOGIK VA TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

**Yusupov Abdulaziz**

*Farg'onan davlat universiteti Tarix fakulteti 3 bosqich 20.87 guruh talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Tarixni o'qitishda innovatsion-pedagogik texnologiyalarning ahamiyati bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish haqida, Darslarda fikrlar xilma-xilligini erkinlashtirish jarayonlari demokratik hayat tarzining tarkibiy qismi ekanligini, shu bilan birga erkinlikning haqiqiy mohiyati uning ma'naviy chegaralari bilan belgilanishi haqida so'z boradi.

**Kalit so`zlar:** tarix, o`qituvchi, jarayon, xalq, jamiyat, kelajak, ahamiyat, tafakkur, pedagogic texnologiya, rivojlantirish.

Bizga ma'lumki tarix juda qadimiy fanlardan biri hisoblanadi. Tarix fanini kelajakni ko'rsatuvchi „Ko'zgu“ desak bo'ladi va bu ko'zguga qarab har qanday inson jamiyat, xalq o'z kelajagini belgilab olishi mumkin. Hozirgi kunda O'zbekiston rivojlangan davlatlar qatoridan o'rinnegallashi onson kechgani yo'q. Shuning uchun tarixni o'qitish jarayonida o'quvchilar bugungi kunning qadriga yetishini, o'tmishda yo'l qo'yilgan xatolarni takrorlamaslikni, o'tmishdagi xatolardan xulosa chiqarib olishini o'rgatish lozimdir. Qolaversa maktabda tarix fanini o'qitish orqali o'quvchilarda o'zlari mustaqil va ijodiy fiklashini rivojlantirishga, miliy ong va tafakkurni o'stirishga, eng asosiysi ma'naviy barkamol shaxsni, haqiqiy vatanparvar insonni tarbiyalab voyaga yetkazishga ahamiyat berish lozim.

Bugungi kunda mustaqil O'zbekistonimiz tarixini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu esa o'sib kelayotgan yosh avlodni tariximizni chuqurroq o'rganish imkonini bermoqda. Tariximizdan faxrlanish va xulosa chiqarish imkoniyatlarini ham taqdim etmoqda.

Tarixni o'qitishda innovatsion-pedagogik texnologiyalarning ahamiyati bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, pedagogik tafakkurini kengaytirish, ularda fanni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash uchun zarur bo'lgan metodik bilim, ko'nikmalarni shakllantirishdan iboratdir.

Ma'lumki, hozirgi zamon har bir fan o'qituvchisi zimmasiga inson, uning jamiyatdagi o'rniga haqqoniy baho berish vazifasini yuklaydi. Buning uchun o'qituvchi ta'lif tarbiyaning yangi shakllari, vositalari va usullarini egallashi va shu bilan birga o'zi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratishga, shaxsni tarbiyalashning yangi a'nnaviy, samarali usullarini tanlashga harakat qilishi hamda ijodkor bo'lmoshi lozim. Maktablarda o'qitilayotgan ijtimoiy, shu jumladan tarix fani o'zida oljanob fazilatlarni mujassamlashtirilgan insonni tarbiyalashda benihoya ahamiyat kasb etadi. Maktabda o'quvchi kishilik jamiyatni bosib o'tgan yo'lni, ularning chet el bosqinchilariga qarshi, o'z ozodligi va baxt-saodati, porloq kelajagi uchun olib borgan kurashlari



haqidagi asosiy ma'lumotlarni tarix darslaridan bilib oladi. Shu bilan birga tarix darslari o'quvchining hozirgi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni to'g'ri anglashga yordamlashadi.

Ta'lism-tarbiya faoliyatining mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashmoqda. Hozirda inson faoliyatdan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimga, ya'ni "texnologiya" ga aylanib bormoqda [2]. Shu asosda ta'lism-tarbiya sohasida so'nggi davrda pedagogik texnologiya amal qila boshladi. Darsslarni o'tishda bugungi kundagi o'quvchilarning qiziqishi, orzulari, imkoniyatlariga katta e'tibor berish lozim. Buning uchun birinchi navbatda o'qituvchining o'zi ham mohir ustoz bo'la olishi kerak. Shundagina o'quvchilarning qalbiga yo'l topa olsa bo'ladi.

Hozirgi kunda ta'lism jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari) dan foydalanib, ta'limga samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayishi tabiiy. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarlarni o'zlarini qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarini ham o'zlarini keltirib chiqishlariga qaratilgan. Bugungi kunda ta'lism muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilayotganligining asosiy sababi quyidagicha izohlashimiz mumkin: Birinchidan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limga amalga oshirish imkoniyatining kengligida. Ikkinchidan, pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi. Uchinchidan, pedagogik texnologiya o'qituvchini ta'limgartarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa talabandan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi.

Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrleshga, o'z nuqtayi nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Pedagogik texnologiya texnologik yondashuvga asoslanadi Texnologik yondashuv deganda tayyor mahsulot (ishlab chiqarish texnologiyasiga o'xshash) olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qollaniladigan usul va metodlar toplami tushunilib, qoyilgan maqsadlarga erishishda kutilgan natijalarni kafolatlaydigan usul metodlari majmuasi tushuniladi. Agar metod bilish yo'li, tadqiqot yo'li yoki biror faoliyatdagagi ma'lum amaliyot va nazariy bilimlar sohasini egallashni haraka tlar, usullar majmuasi deb tushunsak, pedagogik texnologiyaning ta'lism usuli, ma'lum ma'noda ta'lism-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmuasini anglatadi.



Darslarda fikrlar xilma-xilligini erkinlashtirish jarayonlari demokratik hayot tarzining tarkibiy qismi ekanligini, shu bilan birga erkinlikning haqiqiy mohiyati uning ma'naviy chegaralari bilan belgilanishi o'quvchilar ongiga yetkazishga alohida e'tibor berishi zarur. Bu sohada eskicha tashviqot va targ'ibot tamoyillarini qo'llash, sayoz fikr va siyqasi chiqan misollardan foydalanish yo'lidan mutlaqo voz kechish lozim.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar - ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'zaro faolligini oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirishga va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Innovatsion pedagogik texnologiya metodlarini qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega. quyida keltirilgan metod barcha fanlarda qo'llanilsa ta'lim samaradorligini oshirishga ko'mak beradi.

Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari va ular o'rtasidagi aloqalar Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari (maqsadi, mazmuni, o'qitishning metod va usullari, natijalari) o'rtasidagi qonuniyatli aloqalar quyidagicha namoyon bo'ladi: o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida maqsadi, ta'lim-tarbiya vazifalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi o'qitishning mazmuniga, g'oyaviy-siyosiy va nazariy jihatdan pishiq bo'lishiga bog'liq bo'lganidek, o'quvchilarning tarix kursini o'zlashtirish darajasi ham o'z navbatida o'qitishning o'rganiladigan mavzuning maqsadi, ta'lim-tarbiya vazifalari va mazmuniga mos keladigan ta'lim shakllari, o'qitish metod va usullari hamda vositalaridan qay darajada maqsadga muvofiq foydalana bilishiga bog'liqdir. Shuningdek, o'qitishning natijalari ham o'qituvchining o'qitishdan ko'zlangan maqsadni, uning ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini aniq belgilay olishiga, kursning mazmuniga mos tarzda amalga oshirishga yordam bera oladigan metod va usullardan ilmiy asosda foydalana bilishiga bog'liqdir. Tarix o'qitish jarayoning tarkibiy qismlari o'rtasidagi bu o'zaro dialektik bog'lanish natijasida ular bir-biriga o'zluksiz ta'sir ko'rsatib boradi. Tarix o'qitishda ana shu qonuniyatlarga suyanmasdan, ularni e'tiborga olmasdan turib yaxshi natijaga erishib bo'lmaydi.

Ta'limni muayyan pedagogik maqsadga yo'naltirmoq uchun o'qituvchi o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishning maqsadini, uning asosini tashkil qilgan ta'lim-tarbiya vazifalarini aniq belgilab olishi kerak. Shu bilan birga, umumiy vazifalarni amalga oshirishda har bir sinfda o'qitiladgan tarix kursining o'rni, vazifalari, o'z navbatida mazkur kursni o'qitishning ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishda uning har bir bo'limi, bo'limdagi mavzular, xatto har bir darsda o'tiladigan mavzuning ham juz'iy vazifalari oldindan belgilab olinishi kerak. Chunki har bir tarix darsining butun tarix kursining umumiy darslar sistemasida tutgan o'rni bor, bu darsda o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitish oldiga qo'yilgan umumiy vazifaning qandaydir elementi yoki bo'lagi xal etiladi. Tarix o'qitish maqsadlarini belgilashda, avvalo ta'lim va tarbiyaning uzviy birligini, o'qitish davomida o'quvchilarning g'oyaviy-siyosiy saviyasi mutassil o'sib borishini, ularda



ko'nikma va malakalar hosil qilishni hamda ijodiy faoliyatga tayyorlanishlarini nazarda tutmoq kerak. Ta'lidan kuzatilgan maqsadlarning muvaffaqiyatli ravishda amalgamoshmog'i uchun, ular ilmiy asosda belgilanmog'i lozim. Bu maqsadlar tarix ta'limining mazmuni va vazifalari bilan belgilanadi. Shuningdek, bunda ta'limning boshqa shart-sharoitlari: o'quvchilarning saviyasi, bilimi, ko'nikmalari va malakalari, dars uchun ajratilgan vaqt, darsni o'tish imkoniyatlari va boshqalar ham nazarda tutiladi. Ta'lim maqsadlarining ilmiy asosda belgilanishi ularning realligini ta'minlaydi. Ta'lidan ko'zlangan maqsadlarni o'qituvchi naqadar chuqur anglab olgan bo'lsa, tarix o'qitish mazmunan shunchalik g'oyaviy va tarbiyaviy natija beradi.

### **ADABIYOTLAR RO`YHATI:**

1. Ro'ziboyevna M. R. TEMURIYLAR DAVRI TARIXINI O 'QITISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI // "Uchinchi renessansda ilmiy-amaliy tadqiqotlarning dolzarb muammolari" mavzusidagi onlayn konferensiyasi. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 192-194.
2. Mustafokulovna M. S. TARIX DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH //INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 348-351.
3. Sodiqovna S. G. TARIX DARSINI O 'QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH //IJODKOR O'QITUVCHI. – 2022. – T. 2. – №. 22. – C. 40-41.